



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat markazi**

**"ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIY MEROSINING BASHARIYAT TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI"
MAVZUSIDAGI ILMUY-AMALIY KONFERENSIYA**

AXBOROT XATI

Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi, Respublika ma'nnaviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda 2025 yil 10 fevralb soat 10.00 da "**Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining bashariyat tamaddunida tutgan o'rni**" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazadi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun quyidagi masalalar bo'yicha materiallar taqdim etiladi:

- Alisher Navoiy va mumtoz adabiy an'analar.
- Ikki buyuk dahoning o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.
- Alisher Navoiy va Bobur ijodini o'rganishning nazariy masalalari.
- Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining xorijiy tillarga tarjimasi hamda adabiy ta'sir masalalari.
- Alisher Navoiy va Bobur asarlarining til xususiyatlari.

Konferensiya rasmiy tillari: o'zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillar.

Materiallar (maqola, tezislar)ni qabul qilish muddati: 2025 yilning 5-fevraliga qadar *Navoiy va Bobur, 2025* (https://t.me/Navoiy_va_Bobur_konferensiya) nomli telegram guruhi orqali qabul qilinadi.

Tashkiliy qo‘mita maqola va tezislarni tahrir qilish huquqiga ega. Matnda keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi va aniqligiga mualliflar javobgardir. Talabga javob bermaydigan materiallar anjuman dasturiga va to‘plamga kiritilmaydi.

Konferensiya ishtirokchilariga sertifikat beriladi.

Anjumanda ishtirok etish shakli: Anjuman an’anaviy shaklda hamda ZOOM platformasi orqali tashkil qilinadi. Xorijlik mutaxassislar va viloyatlardagi ishtirokchilarining ma’ruzalari oflayn/onlayn tarzida tinglanadi. Onlayn ishtirok etish uchun havola anjuman arafasida e’lon qilinadi.

Anjuman materiallariga qo‘yiladigan talablar:

Maqolalar 5-7 bet bo‘lishi talab etiladi.

Maqola matni doc. formatida, satrlar oralig‘i 1,15 intervalda, Times New Roman 14 kegl shriftida tayyorланади. Maqola sarlavhasi, annotatsiyasi (150-200 so‘zdan iborat) va kalit so‘zlari (7-9 so‘z) maqola berilayotgan tilda, shuningdek, rus va ingliz tilida beriladi. Muallifning familiyasi, ismi va sharifi maqola sarlavhasidan keyin keltiriladi, (*) havolasi ostida ilmiy darajasi, unvoni, tashkilot nomi va elektron manzili ko‘rsatiladi.

Havola va foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi: manba havolasi katta qavs ichida, muallif familiyasi, nashr yili va sahifasi ko‘rsatilgan tartibda beriladi. Masalan: [Ne’matov, 2005: 56].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo tartibida matn so‘ngida beriladi. Adabiyotlar soni 5 tadan kam bo‘lmasligi lozim.

Maqolalar to‘plami elektron shaklda e’lon qilinadi. Maqolalar **2025-yilning 5-fevraliga** qadar elektron shaklda qabul qilinadi.

Murojaat uchun tashkiliy qo‘mita: 100174, Toshkent sh. Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi 2-uy, O‘zMU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi.

Mas’ul: Bahor To‘rayeva. Tel: +99899 8181683.